

## **Akademik litsey jismoniy tarbiya rahbari Osiyo championatida**

Ayni kunlarda Tailand yashil maydonlarida qizlar o`rtasidagi U-19 Osiyo championati bo`lib o`tmoqda. Mazkur musobaqa uchrashuvlarida hamyurtlarimiz - Edita Mirobidova hamda TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi Akademik litsey jismoniy tarbiya rahbari Zilola Rahmatova hakam sifatida faoliyat olib bormoqda. Hozirga qadar O`zbekistonlik hakamlar Shimoliy Koreya - Avstraliya, Vietnam - Shimoliy Koreya, Miyanma -Xitoy, Yaponiya-Xitoy hamda yarim final doirasidan o`rin olgan Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya o`yinlarini boshqarishdi. Endi ertaga musobaqaning final o`yini o`tkaziladi. Hal qiluvchi bahsda Shimoliy Koreya -Yaponiya qarama-qarshi kuzatiladi. Diqqatga sazovor jihat shundaki, final bahsini Edita Mirobidova boshqarib boradi. Zaxira hakami sifatida esa Zilola Rahmatova ish olib boradi.



**Akademik litsey ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari D. Tursoatov axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari rahbari Rahimboy Jumaniyozov**